



Durdona NAZAROVA,
Andijon davlat chet tillari instituti, tadqiqotchi
E-mail: babdusattorova@mail.ru

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA MAQOL VA MATALLARNING TASNIFI MUAMMOLARI

Аннотация

Maqola zamonaviy ingliz va o'zbek tillarida maqol va matallarning semantik turlari qiyosiy tadqiqiga bag'ishlangan bo'lib, unda objektiv borliqning mavjud xususiyatlariga hos kontentlarni ifodalashiga ko'ra ular antropomorfik, topomorfik, naturomorfik, astronomorfik, faunomorfik, ornitomorfik, insektomorfik, florumorfik, religiomorfik kabi yangi semantic turlarga tasniflashtirilgan.

Kalit so'zlar: Maqol va matallar, proverbemalar, proverbemalar semantic tasnifi.

ПРОБЛЕМЫ КЛАССИФИКАЦИИ ПОСЛОВИЦ И ПОГОВОРОВ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация

Статья посвящена сопоставительному исследованию семантических типов пословиц и поговорок - провербем в современном английском и узбекском языках, в которых по выражению контентов, присущих существующим аспектам объективного бытия - мира, они классифицируются на их новые семантические типы, такие как антропоморфический, топоморфический, натуроморфический, астрономорфический, фауноморфический, орнитоморфический, инсектоморфический, флороморфический и религиоморфический.

Ключевые слова: Пословицы и поговорки, провербемы, семантическая классификация провербем.

PROBLEMS OF CLASSIFICATION OF PROVERBS AND SAYINGS IN ENGLISH AND UZBEK

Annotation

The article is devoted to a comparative study of semantic types of proverbemes in modern English and Uzbek, in which, according to the representation of the contents linked with the existing aspects of objective world, they are classified into such new semantic types as anthropomorphic, topomorphic, naturomorphic, astronomorphic, faunomorphic, ornitomorphic, insectomorphic, florumorphic and religiomorphic.

Key words: Proverbs and sayings, proverbemes, semantic classification of proverbemes.

Kirish. Hozirgi zamon tilshunosligida paremiologik birliklar, shu jumladan maqol va matallar, ya'ni "proverbema"larning[5] turli jixatlariga ko'ra bir necha tasniflar ishlab chiqilgan, masalan, alfavitga(ya'ni maqol va mataldagi tayanch so'zning bosh harfiga ko'ra), ularning grammatik qurilishiga ("sodda gaplar/monotaksemlar" va "qo'shma gaplar/poilitaksemlar" orqali voqelantirishiga) ko'ra [4] va ularning mavzuiy xususiyatlari, ya'ni qaysi paremiologik, aniqrog'i, proverbal kontentlar(oila, farzand, o'g'il, qiz, xotin, qarindosh-urug, do'st, dushman, sevgi-muhabbat, nafrat, ilm, qobliyat, donolik, axmoqlik, tabiat, koinot, yer, osmon, suvlik, hayvonlar, o'simliklar, din va e'tiqod v.h.)ni ifodalashiga ko'ra tasniflar ishlab chiqilgan[1], lekin bizningcha ularning keng qamrovli, umumlashtirilgan, qat'iy mezon va tamoyillarga asoslangan tasnifi masalasi hanuzgacha ochiq qolib kelmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar taHLili. Fikrimizning dalili sifatida shuni aytishimiz mumkinki, qaysi tildagi maqollar va matallar tizimiga qaramang, u erda maqollarning 200 dan ortiq mavzuiy guruhlar borligining guvohi bo'lamiz[1]. Bunday holat esa mavjud mavzuiy guruhlarini qat'iy mezonlar asosida katta qamrovli mavzuiy guruhlariga birlashtirib, unifikatsiya qilish maqol va matallarni tadqiq etuvchilar va ularni amaliy jihatdan o'rganuvchilar uchun ma'lum darajada qulaylik yaratadi, qolaversa bunday yondashuvlar natijalari maqol va matallarning umumlisoniy maqomi aniqlash va ularning umumlisoniy nazariyasini yaratish uchun puhta zamin yaratadi degan umiddamiz.

Hozirgi paytda qiyosiy-tipologik asnoda ingliz va o'zbek tillarida politaksemlar proverbemalarining struktur-semantik, kommunikativ-pragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik tahlilini taqdim etishda ularning qat'iy tamoyillar va me'zonlarga asoslangan chog'ishtirma mavzuiy tadqiqi va tasnifi ham muhim ahamiyat kasb etadi, chunki bunday tadqiqotlar umumiy tilshunoslik nazariyasini qiyosiy izlanishlar natijalari asosida rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Biz oldingi ishimizda mazkur

proverbemalarining struktural turlarini tasniflashtirgan edik[2], quyida ularning semantik xususiyatlariga ko'ra tavsif va tasnifini berishga harakat qilamiz.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy tilshunoslikda proverbemalar har bir halqning aql-idroki va zakovatining oltin hazinasi sifatida obyektiv va ideallashtirilgan borliqni, ular bilan bevosita bogliq inson hayoting barcha jabhalarini o'zida aks ettiruvchi, yahlit, qoliplashgan yirik til birliklari bo'lib, universal tabiatga ega. Shuni e'tiborga molikki, barcha proverbemalar inson hayoti va tajribasida bir necha bor boshdan kechirilgan, sinalgan, to'g'riligi asoslangan, u yoki bu til egalari uchun umumiy bo'lgan, qimmatli hulosaviy va tavsivaviy fikr hamda go'yalarni ifodalovchi betakror sintaktik vositalar tizimini tashkil etadi, ularning kognitiv-kontseptual asosini esa uchta universal, kognitiv proverbial kod ("deklarativ-konstativ", "konsekutiv-konklusiv" va "appelyativ-suggestiv") dan biri tashkil etadi[5].

Ingliz va o'zbek tillarining proverbemalar lug'atlari tahlili shuni ko'rsatdiki, ularning mavzuiy semantic guruhlariturlicha bolib, ular har bir tilda o'ziga hoslik kasb etadi, bunday holat esa qiyosiy nuqtai nazardan ularni bir tizimga solishni, umumiy tamoyil va me'zonlar asosida tasniflashtirishni taqozo etadi, bunday tasnif ularni nazariy va amaliy jihatdan tizimli organishga imkon yaratadi.

Ushbu maqola ingliz va o'zbek tillari mahsus lug'atlardagi empiric materiallar tahlili asosida proverbemalarni yangi, keng qamrovli mavzuiy tasnifini ishlab chiqishga bag'ishlangan bo'lib, unda ularning tasnifi mazkur til birliklari orqali voqelantiriladigan universal kognitiv-kontseptual kontentlar va voqeliklar kesimida, icham holda amalga oshirish asosiy maqsad qilib qoyiladi.

Tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, proverbemalar bizni qurshab turgan borliqning barcha tomonlarini, shu jumladan insonning serqirra hayot faoliyati va tajribasini ozida aks ettiruvchi, shu yosinda dunyoning proverbial manzarasini

voqelantiruvchi yirik til birliklari sifatida quyidagi 9 ta semantic turga tasniflantirilishi mumkin:

Antropomorfik proverbemalar (insonga aloqador bo'lgan proverbial kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: inson, oila, farzand, xotin, ona, ota, aka, uka, opa, xola, amma, kundosh, ovsin, kelin, kelinoyi, kuyov, pochcha, kelin buvi, nabira, evara, chevara, begona, singil, tog'a, jiyan, amaki, opoqi, buvi, chaqaloq, bola, tirnoq, qaynona, qaynota, qaynog'a, qaynsingil, qarindosh-urug' va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

A bad workman quarrels with his tools.

A friend to all is a friend to none.

A man of words and not of deeds is like a garden full of

weeds

o'zbek tilida:

Og'a-ini totuv bo'lsa, tog'ni talqon qilar. Opa-singil totuv

bo'lsa, uyni bo'ston qilar.

Otasi achchiq olma yesa, O'g'lining tishi qamashar.

Og'ayni biriksa, bosh ko'payar, Ovsin biriksa, osh ko'payar.

Topomorfik proverbemalar (geografik nomlarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: qit'a, quruqlik, orol, cho'l, saxro, tog'liq, kenglik, balandlik, xovuz, quduq, ariq, soy, jilg'a, daryo, ko'l, dengiz, okean va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

When at Rome, do as the Romans do.

(It is useless) To carry coals to Newcastle.

(It is like) To send (carry) owls to Athens.

o'zbek tilida:

Gap desa qop-qop, ish desa Samarqanddan top.

Tentakka Quva bir tosh, axmoqqa Asaka bir tosh.

Turkistonda qo'y bir so'm, kela-kela o'n bir so'm

Naturomorfik proverbemalar (tabiatga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: tabiat, ob-xavo, fasllar, bahor, yoz, kuz, qish, bahor, havo,

vaqt, kun, hafta, oy (safir oyi, ramazon oyi), saraton (vaqt, palla), chilla, yil, hamal, saxar, erta (lab), azon, peshin, tush (payti), shom, xufton, nomozshom, qosh qorayganda, tong, sahara, kallai-saxarda, kech, kechqurun, tun, yarim kecha (da), muz, qor, yomg'ir, do'l. qirov, yog'in, issiq, sovuq, bulutli, shabnam (li), sham, qirov (li), qor (li), shamol, bo'ron, do'l, qirov, buvildiriq, to'fon, to'zon, toshqin, sel, ko'chki va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

After rain comes fair weather.

Oaks may fall when reeds stand the storm.

The wind cannot be caught in a net.

o'zbek tilida:

Yoz yopinchig'ingni qo'yma, qish o'zing bilasan

Sevgining bahori bilan shodlanma, yoz-u qishi ham bordir.

Sayoz daryo shovqin oqar, chuqur daryo sokin oqar.

Astronomorfik proverbemalar (koinotga - falakiyotga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: yulduz, yer, quyosh, osmon, bulut, samo, koinot, kurra, falak, zamin va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Make hay while the sun shines.

Mind, the moon does not heed the barking of dogs.

Mind, every dark cloud has a silver lining.

If the sky falls, we shall catch larks.

o'zbek tilida:

Inson — odobi bilan, osmon — oftobi bilan.

Sabr bilan xor guliston bo'lar, sho'r zamin bog' bilan bo'ston bo'lar.

Yaxshi qiz — yoqadagi qunduz, yaxshi yigit — ko'kdagi yulduz.

Faunomorfik (zoomorfik) proverbemalar (terrozoomorfik (er hayvonlarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: bo'ri, qashkir, tulki, ayiq, arslon, sher, yo'lbars, quyon, qo'y, echki, mol, sigir, ho'kiz, buzoq, buqa, eshak, ot, toy, to'ng'iz, tuya, nor, fil, kalamush, sichqon, ko'rsichqon, yumronqoziq, tipratikon, va h.k.); akvazoomorfik (baliq, churtan baliq, nahang, qisqichbaqa, baqa, zuluk, toshbaqa, suv kalamish, qunduz va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Asses fetch the oats and the horses eat them.

When the fox preaches, take care of your geese.

If you lie down with dogs, you will get up with fleas..

As the old cock crows, so crows the young.

Catch the bear before you sell his skin.

o'zbek tilida:

Yuking yerda qolmagay, qatoringda nor bo'lsa.

Bedananing uyi yo'q, qayga borsa, bitbildiq.

Sichqon sig'mas iniga, g'alvir bog'lar beliga.

Tuyani shamol uchirsa, echkini osmonda ko'r.

Ola tozining ovidan ham kech, dovidan ham.

Ornitomorfik proverbemalar (qushlarga tegishli kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: bulbul, sinchalak, qizilishton, qirgovul, sassiq-popishak, chittak, qarga, olaqarga, boyo'g'li, po'nka, g'oz, oqqush, o'rdak, karqunaq, xo'roz, tovuq, g'ulig'uli-tovuq, qashqaldoq, jo'ja, tovuq, tuyaqush, kabutar, chumchuq, bedana, laylak, turna, burgut, lochin, qirg'iy, musicha, mayna va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

It is an early bird that catches the fly.

One chick keeps a hen busy.

As the old cock crows, so does the young.

If the sky falls, we shall catch larks.

What is sauce for the goose is sauce for the gander.

o'zbek tilida:

Qafasdagi bulbuldan vayronadagi boyqush erkin.

Shoshgan o'rdak ham boshi bilan sho'ng'iydi, ham — dumi bilan.

Yoz kelishini laylak bilar, qish kelganin — olaqarg'a..

Ola tovuq somon sochar, o'z aybini o'zi ochar.

Qush qanoti bilan uchadi, quyruq'i bilan qo'nadi.

Insektomorfik proverbemalar (hashorat, qurt-qumrsqalarga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: ilon, chayon, burga, bit, kana, chivin, qumrsqa, qirqoyoq, qurt, semizqurt, chuvalchang, ipak qurti, qo'ngiz, chumoli, kaltakesak va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

"Almost" never killed a fly (was never hanged).

It is an early bird that catches the fly

(It is) As snug as a bug in a rug.

o'zbek tilida:

Burgaga achchiq qilib, ko'rpani kuydirmo.

U ilonning yog'ini yalagan odam.

Bir cho'loq bit bir kechada o'n yostiqni ovlar.

Floromorfik proverbemalar (o'simliklarga aloqador kontentlarni ifodalovchi (terrofloromorfik) proverbemalar: gul, atirgul, chinnigul, bo'takuz, nomozshomgul, gultojxo'roz, qizilgul, tikon, tikanak, semiz o't, zarpechak, chirmoviq, beda, terak, tol, majnuntol, tut, chinor, jiyda, bodom, pista, yong'oq, mag'iz, do'lana, olma, o'rik, nok, shaftoli, anjir, saksovil, qarag'ay, sho'ra, bug'doy, arpa, sul, sholi, guruch, jo'xori, no'xat, makka, tariq, mosh); akvofloromorfik (bo'tako'z, nilufar va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Through thick and thin, both over bank and bush.

As the tree falls, so shall it lie.

While the grass grows the horse starves.

He that goes barefoot must not plant thorns.

Judge each day not by the harvest you reap but by the seeds you plant.

o'zbek tilida:

Jon kuydirmasang, jonona qayda, toqqa chiqmasang do'lona qayda.

Bug'day noning bo'lmasa ham, shirin so'zing bo'lsin.

Chumchuqdan qo'rqqan, tariq ekmapti.

Bolamnng bolasi, qandak o'rik donasi.

Religiomorfik proverbemalar (dinga aloqador kontentlarni ifodalovchi proverbemalar: xudo, tangri, allox, payg'ambar, farishtalar, machit, din axli (mulla, pop, imom, ruhoni, qozi, etiqodchi, so'fi, arvoh, Jabroyil, shayton, nomoz, a'za, jonaza, va h.k.), masalan:

ingliz tilida:

Go day, come day, God send Sunday.

Man proposes but God disposes.

Lord (God, Heaven) helps those (them) who help themselves.

Every man for himself, and God for us all.

o'zbek tilida:

Baxshiniki «hay» bilan, mullaniki «voy» bilan.

Yer og'asi — xudo, suv og'asi — sulton.

Mullaning aytganini qil, qilganini qilma.

Podshoning holi tang bo'lsa, gadoni axtarar, Gadoning holi tang bo'lsa, xudoni axtarar.

Proverbemalarning yuqorida tavsiya etilgan 9 ta semantic turi har bir tilga, shu jumladan ingliz va o'zbek tillariga ham hos bo'lib, ular ushbu til birliklarini ham nazariy, ham amaliy jihatdan o'rganuvchilarga keng qulayliklar va imkoniyatlar yaratadi.

Tahlil va natijalar. Ta'kidlash lozimki, ingliz va o'zbek tillarida proverbemalarning kommunikativ-pragmatik jihatlarini ularning lingvopragmemalar sifatida muayyan nutq aktlarida qo'llaniladigan turlarida ko'zga yaqqol tashlanadi, masalan: implikativ(shartlangan nutq akti), imperativ (buyruq nutq akti), kontsessiv(yon berish nutq akti), konsekutiv(natija, oqibat nutq akti), komparativ(qyos nutq akti), konstativ(e'trof etish nutq akti), deklarativ(ma'lum qilish, e'lon qilish nutq akti), suprayziv(hayratlanish, ensasi qotish nutq akti), suggestiv(tavsiya, maslahat, taklif nutq akti) va h.k. Proverbemalarning kontseptual asosini 3 turdagi muhim proverbial kognitiv kodlar, ya'ni “deklarativ-konstativ”, “konsekutiv-konklusiv” va “appelyativ-suggestiv” tashkil etadi[5], bu kodlar asosida proverbemalar orqali yuqoridagi zikr etilgan kabi nutq aktlari voqelantiriladi. Bu esa ularning o'ziga hos pragmatic-semantic tasnifini ishlab chiqishni kun tartibiga qo'yadi.

Ingliz va o'zbek tillarida maqol va matallarning struktur-semantik, lingvopragmatik, lingvokulturologik va lingvostilistik tahlilini taqdim etishda ularning mavzuiy tasnifi va tadqiqi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu orinda proverbemalarning yangi tasnifini ularning quyidagi universal kognitiv contentlar(semantikalar) va voqeliklar kesimida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning lingvopragmatik jihatlarini ularning nutq aktida qo'llaniladigan turlari kesimida: implikativ, imperativ, kontsessiv, konsekutiv, komparativ, konstativ, deklarativ, menasiv, konsekutiv, volyuntativ, deziderativ, suprayziv, suggestiv, imprekativ, eksperiensiv, konstativ va b.q.;

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning inson hayot faoliyati bilan bog'liq mavzular kesimida: mehnat, oila, dunyo, bozor, hayot, do'stlik, dushmanlik, ilm, muhabbat, din, savdo, kun, kundosh, rostgo'ylik, mardlik, qo'rqqoqlik va h.k.;

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning sinonimik, omonimik va antonimik turlari kesimida, chunki ular orqali tildagi proverbemalar tizimidagi structural-semantik va lingvokulturologik o'zgarishlar, siljishlar kuzatiladi;

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning jamiyatning u yoki bu qatlamlariga dahldor til egalari kundalik muloqatlarida qollanishi kesimida: ijtimoiy maqomiga, lavozimiga, kasbiga, mavqeyiga ko'ra;

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning til egalari feminin va maskulin genderi kesimida, ya'ni ayol va erkaklar nutqiga, yoki ikkalasiga ham hos bo'lgan proverbemalar turlarga ko'ra;

monotaksemitik va politaksemitik proverbemalarning eski yoki yangi turlari kesimida: ularning usul va okkasional turlari, ya'ni proverbial neologizmlar sifatidagi maqomiga ko'ra va h.k.;

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, ingliz va o'zbek tillari proverbemalarining semantik tasnifi ushbu tillarda ularning semantic jihatlarini aksariyat hollarda izomorf ekanligini ko'rsatdi. Buning boisi shundaki, har ikki til egalari proverbial tafakkuri bir-biriga yaqin, chunki ularda inson madaniyatining umumiy jihatlar mavjud, bunday jihatlar esa har ikki xalq vakillarining kontseptosferasida umumiy proverbial kontentlar - kontseptlar sifatida mavjudligidan, ularning kundalik muloqotda muntazam voqelantirilishidan dalolat beradi. Proverbemalarning allomorph jihatlarini esa, har bir til egalari madaniyatiga hos bo'lgan voqeliklarni ifodalovchi mazkur birliklar semantikasida a'irir ma'no o'ttenkalari - semalarda ko'rinadi.

ADABIYOTLAR

1. Даль В.И. Пословицы русского народа//<http://www.rodon.org/dvi/prn0.htm>.
2. Назарова Д.Ш. Турли тизимли тилларда политаксема оркали ифодаланган мақол ва маталлар концептуал ва структурал-семантик жиҳатлари қиёсий-типологик тадқиқи// Умумий ва антропоцентрик тилшунослик ҳамда лингвоадабиётшуносликнинг долзарб муаммолари. Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари. -Андижон, 2022. - Б.235-245.
3. Паремииология.<https://ru.wikipedia.org/wiki/%D0%9F%D0%B0%D1%80%D0%B5%D0%BC%D0%B8%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D1%8F>.
4. Хошимов Г.М. Типология сложного предложения в разносистемных языках(на материале английского, узбекского, русского и других языков). Автореф. дисс. на соиск. уч. степ. докт. филол. наук. -Ташкент, 2002. -49 с.
5. Хошимов Г.М., Хошимов М.Г., Абдуллаева Н.А., Назарова Д.Ш., Ахмедова Д.А. Актуальные проблемы терминологического аппарата и метаязыка исследования пословиц и поговорок// ФарДУ илмий хабарномаси, 1-2025, -С. 213 -219.
6. Ўзбек халқ мақоллари//Главная.Хикматнома.Архив на Ўзбек халқ мақоллари.// ziyouz.uz;
7. Simpson J. A., Speake J. The Concise Oxford Dictionary of Proverbs. - Oxford University Press, 1994. -330 p. ISBN 9780192800022.
8. 1000 English proverbs//WordPress.com <https://suratiundhiyu.files>.